

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAJIDOVA DILNOZA BAHROMOVNA

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI YETISHTIRISH JARAYONLARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 – “Ekonometrika va statistika”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch — 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

MAJIDOVA DILNOZA BAHROMOVNA

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishning ekonometrik modellari (Surxondaryo viloyati misolida)3

МАЖИДОВА ДИЛНОЗА БАХРОМОВНА

Эконометрические модели повышения эффективности процессов выращивания плодоовощной продукции (на примере Сурхандарьинской области)25

MAJIDOVA DILNOZA BAHROMOVNA

Econometric models for improving the efficiency of fruit and vegetable production processes (a case study of the Surkhandarya region).....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAJIDOVA DILNOZA BAHROMOVNA

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI YETISHTIRISH JARAYONLARI
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK MODELLARI
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 – “Ekonometrika va statistika”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch — 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt4857raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdug'aniyev Otabek Allajonovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sauxanov Jonibek Kaziyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Atayev Jasur Erkinovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "___" _____ soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda meva-sabzavot mahsulotlar iste'moli va ishlab chiqarilishi global iqtisodiyotning bir qismiga aylanib, mintaqalarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Global iqtisodiy tiklanish bilan birga, 2030-yilda 670 millionga yaqin odam (dunyo aholisining 8 foizi) hali ham ochlikdan aziyat chekishi prognoz qilinmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra "...2021-yilda dunyoda 828 million kishi (dunyo aholisining 9,8 foizi) ocharchilikka duch keldi, bu o'tgan yilga nisbatan 46 million nafarga va 2019-yilga nisbatan 150 million nafarga ko'p. Ocharchilikdan aziyat chekayotgan odamlarning ulushi 2015-yildan beri nisbatan o'zgarmagan edi, ammo 2020 va 2021-yillarda o'sishda davom etdi"¹. Bularning barchasi meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatib turibdi.

Jahonda globallashtirish sharoitida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotni rivojlanishiga, aholini meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlash muammolarini hal etishga, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga muhim o'rin tutmoqda. Shu bois, bugungi kunda mintaqalarda meva-sabzavot mahsulotlari meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, meva-sabzavot klasterlari faoliyati samaradorligini usul va mezonlar asosida baholash, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish va prognozlash ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida ko'plab muammoli tashkiliy-iqtisodiy masalalar ko'rib chiqildi va yechimi amalga oshirildi. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ham "...tumanlarni aniq qishloq xo'jaligi mahsulotlari turini yetishtirishga ixtisoslashtirish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish va klasterlarga ochiq tanlov asosida ajratish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish, aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanilishi uchun sharoitlar yaratish"² kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli ijrosi mintaqalarda

¹www.fao.org Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti rasmiy sayti.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni.

meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirish va tendensiyalarini ekonometrik modellashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-sonli “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-dekabrda PQ-465-sonli “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-avgustdagi 330-sonli “Qishloq xo‘jaligi sohasiga ilg‘or raqamli texnologiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Meva-sabzavotchilik tarmog‘ining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan: M.Hammer, J.Champy, W.E.Deming, B.A.Putko, N.Sh.Kremer, I.I.Eliseeva, M.E.Porter, V.E.Millar, A.Singbo³ va boshqa iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borganlar.

Mustaqil Davlat Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.B.Афанасьева, И.И.Леньков, Н.С.Еремеева, Т.Х.Кастуев, А.А.Панов, С.С.Апаев, Н.И.Гапоненко⁴ va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirishdagi muammolarga alohida e‘tibor qaratganlar.

³M.Hammer., J.Champy. // Reengineering the corporation // New York, Doctor of Econ. Dissert. 2021. — 223 p.; W.E.Deming. // Quality, productivity, and competitive position. // Cambridge, MA: Massachusetts Institute of Technology, Center for Advanced Engineering Study, 2019. — 373 p.; B.A.Putko, N.Sh.Kremer. // Econometrics: a textbook for university students revised. and additional // Doctor of Econ. Dissert. M.: UNITI-DANA, 2010. — 328 p.; I.I.Eliseeva. // Econometrics: a textbook for masters // — M.: Yurayt Publishing House, 2014. — 453 p; M.E.Porter, V.E.Millar. // How Information Gives You Competitive Advantage // ZHarvard Business Review, 2018. — (July—August), 149— 160 p.; A.Singbo. // Analyzing Efficiency of Vegetable Production in Benin. Doctor of Econ. // Dissert. Wagening-2012, — 140 p.

⁴A.B.Афанасьева. // Статистическая оценка динамики производства сельскохозяйственной продукции в системе государственного регулирования продовольственного рынка. // Автореф. дисс. на соис.канд. экон. наук. — Самара. 2008. —26 с.; И.И.Леньков. // Моделирование прогнозирование экономики агропромышленного комплекса // — Монография. Минск: БГАТУ -2011 г. 228 с.; Н.С.Еремеева. // Эконометрика : лабораторный практикум в Excel : учеб. пособие для студентов, обучающихся по программам высшего образования по направлению подготовки Экономика // — Оренбург : ОГУ, 2016. — 132 с.; Т.Х.Кастуев. // Обеспечение продовольственной безопасности РСО-Алания в условиях рыночной экономики: На материалах Республики Северная Осетия-Алания: // диссертация ... кандидата экономических наук: Владикавказ. 1999г. 174 стр.; А.А.Панов. // Инвестиционное проектирование и управление проектами. // Учебное пособие, Экономика и

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Б.Б.Беркинов, О.Қ.Хатамов, U.S.Muxitdinova, P.A.Алимов, A.S.Хожайев, О.А.Абдуг‘анийев, S.S.Қulmatova, A.S.Хожайев⁵ va boshqalarning ilmiy izlanishlarida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining meva-sabzavotchilik sohasini iqtisodiy rivojlantirish, kompleks statistik tahlil etish hamda samaradorligini oshirish, tuzilmaviy-tarkibiy o‘zgarishlarni modellashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Ammo yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning ilmiy yondashuvlarida hududlar darajasida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishning holati tahlil qilingan bo‘lsa-da, ushbu sohadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o‘rganish, hududlar darajasida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishning ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “2022-yil uchun Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 2 Ochlikka barham berish)” ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishning ekonometrik modellarini tuzish va istiqbollarni prognozlash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mintaqalarda meva-sabzavotchilik tarmog‘ini oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda tutgan o‘rnini hamda nazariy-uslubiy asoslarini yoritish;

hududlarda meva-sabzavot klasterlari faoliyati samaradorligini baholash usullari va mezonlari asoslash hamda uni ta‘minlashda davlatning o‘rnini baholash;

viloyat meva-sabzavotchilik tarmog‘ining o‘ziga hos xususiyatlari, undagi muammolar, iqtisodiy rivojlanishi va asosiy ko‘rsatkichlarini iqtisodiy-statistik usullar yordamida tahlil etish;

meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishning ko‘p omilli ekonometrik modellarini tuzish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

Финансы. 2002. – 114 с.; С.С.Апаев. // Формирование и развитие регионального плодородного подкомплекса. // Диссертация канд. экон. наук.- Владикавказ. 2009. – 98 с.; Н.И.Гапоненко. // Формирование и развитие предпринимательства в специализированных садоводческих предприятиях. // Диссертация канд. экон. наук. Воронеж. 2001г.

⁵В.В.Беркинов. //Эконометрика // О‘quv qo‘llanma. — Toshkent: 2015 y. 60-68 b.; О.Қ.Хатамов. // Qishloq xo‘jalik texnikasi lizingiga investitsiyalar jalb etish jarayonlarini modellashtirish. // “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.- T.: TerDU, 2007. -142 b.; U.S.Muxitdinova //Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari. // Iqt. fan. dok. dis.-T., 2001 y.; R.A.Alimov. // Metodologicheskiye problemi postroyeniya sistema natsionalnix schyotov. // Dok. diss. –T.: TGU, 1993. –S.250.; A.S.Хожайев. // Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili (Farg‘ona viloyati misolida). // Avtoreferat. Toshkent: 2019 y. 19 b.; О.А.Абдуг‘анийев. // Iste‘mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ekonometrik modellari. // fan doktori (DSc) dissertatsiya. Urganch: 2022 y. 106 b.; S.S.Қulmatova. // Qishloq xo‘jaligida mashina-traktor parklaridan samarali foydalanishni modellashtirish. // (PhD) dissertatsiya avtoreferati. —T:TDIU, 2022 — 28 b.; A.S.Хожайев. // Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatining iqtisodiy-statistik tahlili // PhD dissertatsiya avtoreferati. – Farg‘ona: 2019 y.;

Surxondaryo viloyatida xo‘jalik toifalari bo‘yicha meva-sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining asosiy tendensiyalarini ekonometrik tahlil etish;

viloyatda meva va sabzavot mahsulotlari hosildorlik ko‘rsatkichlarini polinom modellari bo‘yicha adaptiv baholash;

hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishning ko‘p variantli prognoz modellarini tuzish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xo‘jaliklar faoliyatini hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish hamda istiqbolini ko‘p variantli prognozlash jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlari, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

meva-sabzavotchilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi baholash ko‘rsatkichlarining $0,617 \leq S_{IchS} \leq 1$ juda yuqori, $0,488 \leq S_{IchS} < 0,617$ yuqori, $0,359 \leq S_{IchS} < 0,488$ o‘rta, $0,23 \leq S_{IchS} < 0,359$ past, $0 \leq S_{IchS} < 0,23$ juda past o‘rtacha qiymatlari chegaralari ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyati meva-sabzavot mahsulotlari hosildorlik dinamikasining polinom modellari eksponensial o‘rtacha $Q_t^1 = \alpha y_t + (1 - \alpha) \cdot Q_{t-1}^1$ va $Q_t^2 = \alpha Q_t^1 + (1 - \alpha) \cdot Q_{t-1}^2$ moslashuvchan qiymatlarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

Surxondaryo viloyatidagi meva-sabzavot yetishtirib beruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarida mahsulot narxining o‘sishi ishlab chiqarish hajmi o‘sishiga ta’sirining ($\bar{I} = \frac{\mu}{1-\mu}$) o‘rtacha davomiyligi baholashning ($y_t = \alpha(1 - \mu) + \alpha_0 \cdot x_t + \mu \cdot y_{t-1} + v_t$) ekonometrik modellari taklif etilgan;

meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishning 2028-yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hududlarda meva-sabzavot klasterlari faoliyati samaradorlik darajasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyatida meva va sabzavot mahsulotlari hosildorlik ko‘rsatkichlarini polinom modellari bo‘yicha adaptiv baholangan;

meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichlari ekonometrik modellar asosida tahlil qilingan va hajmini prognozashtirish variantlari taklif etilgan;

Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilgan;

meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishni ekonometrik modellar yordamida baholash va ko‘p variantli prognozlash usullari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalari ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan

ilmiy-nazariy va metodologik tadqiqotlarga asoslanganligi, foydalanilgan axborot bazasining rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi, Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasi statistik ma‘lumotlaridan olingani, viloyat meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirishga doir dasturlariga muvofiqligi hamda tegishli xulosa va takliflarning tuzilma va tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishini iqtisodiy-statistik usullarda ilmiy tadqiq etish, ekonometrik modellar asosida o‘rta muddatli prognoz variantlarini ishlab chiqish hamda tarmoq rivojlanishini istiqboldagi yo‘nalishlarini belgilashda ilmiy asoslangan tavsiyalarni taqdim yetish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati respublikamiz hududlarida, xususan Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirish, meva-sabzavotchilik tarmog‘ida mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlash, hududiy muvofiqlashtiruvchi dasturlar ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida talabalarga “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Statistika asoslari”, “Ekonometrika”, “Matematik modellashtirish” kabi fanlaridan o‘quv-uslubiy materiallar sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishning ekonometrik modellashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

meva-sabzavotchilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi baholash ko‘rsatkichlarining $0,617 \leq S_{Ichs} \leq 1$ juda yuqori, $0,488 \leq S_{Ichs} < 0,617$ yuqori, $0,359 \leq S_{Ichs} < 0,488$ o‘rta, $0,23 \leq S_{Ichs} < 0,359$ past, $0 \leq S_{Ichs} < 0,23$ juda past, o‘rtacha qiymatlari chegaralari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar Surxondaryo viloyat hokimining 2024-yil 19-iyundagi “Viloyat tumanlarida 2024-yilda ertaki ekinlar va g‘alladan bo‘shaydigan maydonlarda takroriy ekinlarni ekish orqali aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, bozorlarda narx-navo barqarorligini ta‘minlash, eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil qilish va talab etiladigan moddiy-texnik resurslarini o‘z muddatida yetkazib berish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 471-8-0-Q/24-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 14-martdagi 07-07/629-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida viloyat qishloq xo‘jaligi meva-sabzavotchilikka ixtisoslash klasterlarining samaradorlik darajasi 1,38 barobarga oshgani aniqlandi hamda viloyatda qishloq xo‘jaligi sohasida yalpi hududiy mahsuloti hajmi 2024-yilda (20 911,5 mlrd. so‘m) 2023-yilga (19 166,8 mlrd. so‘m) nisbatan 109 foizga yuqori bo‘lishi imkoniyatini yaratgan;

Surxondaryo viloyati meva-sabzavot mahsulotlari hosildorlik dinamikasining polinom modellari eksponensial o‘rtacha $Q_t^1 = \alpha y_t + (1 - \alpha) \cdot Q_{t-1}^1$ va $Q_t^2 = \alpha Q_t^1 + (1 - \alpha) \cdot Q_{t-1}^2$ moslashuvchan qiymatlarini hisobga olgan holda taklif

etilgan ekonometrik modellari Surxondaryo viloyat hokimining 2024-yil 23-fevraldagi “Surxondaryo viloyati tumanlarida foydalanishdan chiqib ketgan qishloq xo‘jaligi yerlarni hamda yangidan o‘zlashtiriladigan yaylov yer maydonlarini foydalanishga kiritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 154-8-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 14-martdagi 07-07/629-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Surxondaryo viloyati agrar tarmog‘ida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashning axborot texnologiyalari va integral ko‘rsatkichlar tizimini qo‘llash imkoni kengaytirilgan, hamda viloyat qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, ekologik va organik dehqonchilikni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan;

Surxondaryo viloyatidagi meva-sabzavot yetishtirib beruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarida mahsulot narxining o‘sishi ishlab chiqarish hajmi o‘shishiga ta‘sirining ($\bar{I} = \frac{\mu}{1-\mu}$) o‘rtacha davomiyligi baholashning ($y_t = \alpha(1 - \mu) + \alpha_0 \cdot x_t + \mu \cdot y_{t-1} + v_t$) ekonometrik modellari bo‘yicha taklifi Surxondaryo viloyat hokimining 2024-yil 23-fevraldagi “Surxondaryo viloyati tumanlarida foydalanishdan chiqib ketgan qishloq xo‘jaligi yerlarni hamda yangidan o‘zlashtiriladigan yaylov yer maydonlarini foydalanishga kiritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 154-8-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 14-martdagi 07-07/629-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Surxondaryo viloyati agrar tarmog‘ida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun yangi ishlov berish texnologiyalarini qo‘llash 14 foizga, transport va saqlash samaradorligini 12 foizga, mahsulotlari diversifikatsiyasini 7 foizga, mahsulotning narxi va eksport imkoniyatlarini 14-15 foizga oshirish imkoniyatini bergan;

meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishning 2028-yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz natijalari bo‘yicha taklifi Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 20-oktabrdagi “2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 531-8-0-Q/23-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimligining 2025-yil 14-martdagi 07-07/629-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklif natijalaridan Surxondaryo viloyatidagi meva va sabzavot mahsulotlari yetishtirishning 2028-yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlari aniqlangan hamda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishini belgilab olishga imkoniyat yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Ushbu tadqiqot ishi natijalarida jami 12 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi doirasida jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya yetgan ilmiy jurnallarda: 1 ta xorijiy jurnalda ilmiy maqola, mahalliy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 7 ta ma‘ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mintaqalarda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari, Surxondaryo viloyatini meva-sabzavot klasteri faoliyatini tashkil etilganlik holati va undagi muammolar tahlili hamda meva-sabzavot klasterlari faoliyati samaradorligini baholash usullari va mezonlari ishlab chiqilgan. Meva – sabzavotchilik tarmog'i faoliyatini kompleks ravishda iqtisodiy-statistik usullar yordamida tadqiq etish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar holati, hajmi, sifati, ekin maydoni, hosildorlik, yalpi hosili va yig'im – terim vaqtidagi yo'qotishlari, qayta ishlangan mahsulotlar hajmi, eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmi ko'rsatkichlari va integral ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash, kelgusida soha rivojlanishi uchun qabul qilinayotgan qarorlarni natijaviyligiga bevosita ta'sir qiladi.

Tadqiqot ishda Surxondaryo viloyati meva-sabzavotchilik klasterlari tarmog'i rivojlanishi va tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligini klasterlar bo'yicha baholash amalga oshirildi. Birinchi bosqichda taklif etilayotgan ko'rsatkichlar tizimi orqali ko'rsatkichlarning me'yorlashtirilgan qiymatlari hisoblanib, ularning umumiy o'rtacha qiymatlari aniqlandi. Ko'rsatkichlar tizimi:

1. Ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi baholash (*IchS*)
2. Meva-sabzavotchilik klasterlarini iqtisodiy holatini baholash (*IH*)

Dissertatsiyada Surxondaryo viloyatida mavjud klasterlardan 5 tasi saralash usuli orqali tanlab olinib, “Xafizbek-Sirojbek-Angor” fermer xo'jaligi, “Xondamir-Mirishkor” fermer xo'jaligi, “Sherobod sabzavot ko'kat klaster» MCHJ, “Baxtiyorbek ko'kat klasteri” MCHJ korxonasi, “Best-Veg surxon” MCHJ korxonasi kabi klasterlar faoliyati samaradorligini baholash amalga oshirildi (1,2,3,4-jadval).

Baholash natijasida ko'ra klasterlarning 60 foizi yuqori integral koeffitsiyentli guruhga, qolgan 40 foizi o'rta va past integral koeffitsiyentli guruhga tegishli ekanligi aniqlandi. Yuqori va past integral koeffitsiyentli guruhlar tarkibiga kiruvchi meva-sabzavot klasterlarini o'rganib chiqib, yuqori integral koeffitsiyentli guruh tarkibiga kiruvchi klasterlarning yangi texnika va texnologiyalardan foydalanayotganligi, asosiy e'tiborini mahsulotlar sifatini saqlab qolishga qaratayotganligi, ishchilari malakasi ham yuqori ekanligi, atrof-muhit va barqarorlikni hisobga olib ish ko'rayotganligi yaqqol namoyon bo'ldi. Past integral koeffitsiyentli guruh tarkibidagi klasterlarda esa bu omillar sezilarli darajada past ekanligi aniqlandi.

Meva-sabzavotchilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi baholash⁶

№	Mezonlar birliklari	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar formulalari	Ko'rsatkichlar nomi, mohiyati	O'rtacha ko'rsatkichl arni hisoblash formulasi	O'rtacha ko'rsatkich qiymatlari chegarasi
1	Klasterlardagi ma'lum birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun qilinadigan xarajatlar darajasi	$IchS_{ICHX}$	$IchS_{ICHX} = \frac{YX}{MH}$	$IchS_{ICHX}$ – ma'lum birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun qilinadigan xarajatlar YX – yalpi xarajatlar MH – mahsulot hajmi	$S_{IchS} = \frac{IchS_{ICHX} + IchS_{M,R} + IchS_{M,U} + IchS_H + IchS_{MSK} + IchS_{SD}}{6}$	$0,617 \leq S_{IchS} \leq 1$ juda yuqori; $0,488 \leq S_{IchS} < 0,617$ yuqori; $0,359 \leq S_{IchS} < 0,488$ o'rta; $0,23 \leq S_{IchS} < 0,359$ past; $0 \leq S_{IchS} < 0,23$ juda past;
2	Klasterlarda yetishtirilgan mahsulotning rentabellik darajasi	$IchS_{M,R}$	$IchS_{M,R} = \frac{SOF}{TICHT}$	$IchS_{M,R}$ – mahsulot rentabelligi SOF – sotishdan olingan foyda TICHT – to'liq ishlab chiqarish tannarxi		
3	Klasterlarda faoliyat yuritayotgan xodimlarning mehnat unumdorligi	$IchS_{M,U}$	$IchS_{M,U} = \frac{MICH}{XO'S}$	$IchS_{M,U}$ – mehnat unumdorligi MICH – mahsulot ishlab chiqarish XO'S – xodimlar o'rtacha soni		
4	Klasterlarda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlarning hosildorlik darajasi	$IchS_H$	$IchS_H = \frac{MH}{BYM}$	$IchS_H$ – hosildorlik BYM – biriktirilgan jami yer maydoni		
5	Klasterlarda yetishtirilayotgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichi	$IchS_{MSK}$	$IchS_{MSK} = \frac{MH}{ICHH}$	$IchS_{MSK}$ – mahsulot sifat ko'rsatkichi ICHH – ishlab chiqarish hajmi		
6	Mahsulotlarning sotuv darajasi	$IchS_{SD}$	$IchS_{SD} = \frac{JYMS}{ICHH} \cdot 100\%$	$IchS_{SD}$ – sotuv darajasi JYMS – jami yetishtirilgan hosildan sotilgani		

⁶ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyatining iqtisodiy holatini baholash⁷

No	Mezonlar birliklari	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar formulalari	Ko'rsatkichlar nomi, mohiyati	O'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblash formulasi	O'rtacha ko'rsatkich qiymatlari chegarasi
1	Klasterlarning ishlab chiqarish tannarxi	IH_{IchT}	$IH_{IchT} = \frac{ICHMX}{ICHH}$	IH_{IchT} -ishlab chiqarish tannarxi $CHMX$ -ishlab chiqarish moddiy xarajatlari	$S_{IH} = \frac{IH_{IchT} + IH_{RK} + IH_{TO'S} + IH_{SR}}{4}$	$0,5 \leq S_{IH} \leq 1$ juda yuqori;
2	Rentabellik koeffitsiyenti	IH_{RK}	$IH_{RK} = \frac{SOF}{ICHMX} \cdot 100\%$	IH_{RK} -rentabellik koeffitsiyenti		$0,402 \leq S_{IH} < 0,5$ yuqori;
3	Klasterlarga tushumning o'sish surati	$IH_{TO'S}$	$IH_{TO'S} = \frac{(STT - O'YT) \cdot 100\%}{O'YT}$	$IH_{TO'S}$ - tushumning o'sish surati STT -sotishdan tushgan tushum $O'YT$ -o'tgan yil tushumi		$0,312 \leq S_{IH} < 0,402$ o'rta;
4	Klasterlarda sotuv rentabelligi	IH_{SR}	$IH_{SR} = \frac{SOF}{JYHS} \cdot 100\%$	IH_{SR} -sotuv rentabelligi $ICHH$ -ishlab chiqarish hajmi		$0,222 \leq S_{IH} < 0,312$ past;
						$0 \leq S_{IH} < 0,222$ juda past

Integral koeffitsiyent shkalasi⁸

No	Mezonlar birliklari	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichlar formulalari	Ko'rsatkichlar nomi, mohiyati	O'rtacha ko'rsatkich qiymatlari chegarasi
1	Ko'rsatkichlarning muhimligini hisobga olgan holda, ulardan foydalanib hisoblanadigan koeffitsiyent	S_{int}	$S_{int} = \sum_{i=1}^2 \omega_i S_i$	ω_1 -ekspertlar xulosalari natijasi kelib chiqqan ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichi ω_2 -ekspertlar xulosalari natijasi kelib chiqqan iqtisodiy holat ko'rsatkichlari $S_1 = S_{IchS}$; $S_2 = S_{IH}$	$0,5 \leq S_{int} \leq 1$ — juda yuqori $0,36 \leq S_{int} < 0,5$ -yuqori $0,3 \leq S_{int} < 0,36$ -o'rta $0,23 \leq S_{int} < 0,3$ — past $0 \leq S_{int} < 0,23$ - juda past

⁷ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.⁸ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Hisob natijalariga ko‘ra, Surxondaryo viloyati meva-sabzavotchilik klasterlari klasterlarning hech biri juda yuqori integral koeffitsiyentli guruhga tegishli emasligi, “Baxtiyorbek ko‘kat klasteri” MCHJ korxonasi-0,42, “Xafizbek-Sirojbek-Angor” fermer xo‘jaligi-0,41, “Sherobod sabzavot ko‘kat klaster» MCHJ esa 0,4 ko‘rsatkich bilan yuqori integral koeffitsiyentli guruhga, “Xondamir-Mirishkor” fermer xo‘jaligi-0,33 ko‘rsatkich bilan o‘rtacha integral guruhga, “Best-Veg surxon” MCHJ korxonasi esa 0,23 ko‘rsatkich bilan past integral koeffitsiyentli guruhga tegishli ekanligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Surxondaryo viloyatidagi meva-sabzavotchilik tarmog‘iga ixtisoslashgan yirik klasterlar ko‘rsatkichlarining integral koeffitsiyentlari⁹

Klaster korxonaning nomi	S_{IChs}	S_{IH}	S_{int} -integral koeffitsiyent
Xafizbek-Sirojbek-Angor FX	0,36	0,453	0,41
Xondamir-Mirishkor FX	0,25	0,413	0,33
Sherobod sabzavot ko‘kat klaster MCHJ	0,53	0,276	0,40
Baxtiyorbek ko‘kat klasteri mas’uliyati MCHJ	0,36	0,489	0,42
Best-Veg surxon MCHJ	0,23	0,222	0,23

Tadqiqotimiz davomida amalga oshirilgan ushbu uslubiyat afzalligi uning kompleksligi, hududiy meva-sabzavot tarmog‘i ishlab chiqarish samaradorligi baholashning integral koeffitsiyentlari shkalasi bo‘yicha guruhlariga ajratish va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning “**Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot yetishtirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash**” deb nomlangan ikkinchi bobida Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy-statistik tahlili, qishloq xo‘jaligida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish tarmog‘ini barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi hamda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish jarayonlari samaradorligini oshirishning ko‘p omilli tahlili va uni ekonometrik modellashtirish tadqiq qilingan.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish va mamlakatimizga xos jihatlarni joriy qilish meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli tadqiqot ishida rivojlangan xorijiy mamlakatlarda meva-sabzavot yetishtirish holati, sohadagi asosiy muammolar va ularning yechimlar tahlil qilingan (5-jadval).

⁹ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

5-jadval

Meva-sabzavot yetishtirish holati rivojlangan xorijiy mamlakatlarda sohadagi asosiy muammolar va ularning yechimlar¹⁰

Mamlakat nomi	Meva-sabzavot yetishtirish holati	Asosiy muammolar va yechimlar
AQSh	Meva yetishtirish 2003-yilga nisbatan 36%, sabzavot yetishtirish 6,3% ga kamaygan; 2021-yilda mevalarning 60% va sabzavotlarning 38% import qilingan.	Mehnat, yoqilg'ini va o'g'it xarajatlari oshishi, tabiiy ofatlar. Fermerning subsidiyalari va saqlash imkoniyatlarini yaratish dasturlari.
Xitoy	Dunyodagi eng yirik oziq-ovqat ishlab chiqaruvchisi; Meva-sabzavot yetishtirish ko'paymoqda; Aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari joriy etilmoqda.	Iqlim o'zgarishi, yer va suv resurslarining cheklanganligi. Innovatsiyalar va texnologik yechimlar orqali samaradorlikni oshirish.
Yaponiya	2019-yilda qishloq xo'jaligi eksporti 8,79 milliard dollar; 2025-yilga kelib 19,28 milliard dollar eksport maqsadi; Fermerning o'rtacha yoshi 67 yosh.	Fermerning soni kamayib bormoqda. An'anaviy usullardan zamonaviy texnologiyalarga o'tish. Eksportni rag'batlantirish va korporativ fermerlikni rivojlantirish.
O'zbekiston	2024-yilda 776 ming tonna meva-sabzavot eksport qilingan; Meva-sabzavot eksporti 2,5 milliard dollar; Klaster va kooperativlar tizimi orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish.	Eksportni oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Urug' va ko'chatlarning chetdan keltirilishi. Klaster va kooperativlar tizimi faoliyatini takomillashtirish.

Dissertatsiyada Surxondaryo viloyatidagi meva-sabzavot klasterlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, regressiya tenglamalari ishlab chiqilgan. Unda quyidagi omillar tanlab olindi: klasterlarning tannarxi (K_T); klasterlarning sof tushumi (K_{ST}); klasterlarning jami xarajatlari (K_{JX}); davr xarajatlari (K_{DX}); klasterlarning soliq va majburiy to'lovlar (K_{SMT}).

Meva-sabzavot klasterlari faoliyatida natijaviy belgiga ta'sir etuvchi bir qancha boshqa omillar ta'siri ham o'rganilganda, ularning ba'zilar kuchsiz ta'sir darajasiga ega ekanligi va boshqa sabablar bilan tajribalardan chiqarib tashlandi. Tahlil Gretl paketidan foydalanib amalga oshirildi.

6-jadval

Surxondaryo viloyati meva-sabzavot klasterlarining tannarxiga ta'sir etuvchi omillarning korrelatsion koeffitsiyenti.¹¹

	K_{ST}	K_{JX}	K_T	K_{DX}	K_{SMT}
K_{ST}	1				
K_{JX}	0,558384	1			
K_T	0,825997	0,927072	1		
K_{DX}	-0,02053	0,811636	0,534196	1	
K_{SMT}	-0,19305	-0,30026	-0,29994	-0,2039	1

¹⁰ Muallif ishlanmasi

¹¹ Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

6-jadval ma'lumotlari asosida, Surxondaryo viloyati meva-sabzavot klasterlarining faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarning multikolleniarlik mavjudlaridan vos kechildi va asosiy ta'sir qiluvchi omillar saqlab qolindi. Yuqorida qayd etilgan Gretl amaliy dasturiy paketidan foydalangan holda quyidagi ekonometrik model tuzildi.

$$K_T = 32303,5 + 0,416783 \cdot K_{ST} + 0,492452 \cdot K_{JX}$$

Modelning tahlillari ko'rsatmoqdaki, konstanta statistik jihatdan ahamiyatsiz (p -qiymati $> 0,05$), ya'ni u bog'liq o'zgaruvchiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. $R^2 = 0,99$ ekanligidan model bog'liq o'zgaruvchining 99,76% o'zgarishini angladi. Bular modelning juda yuqori sifatli ekanligini ko'rsatmoqda. F-statistikaning yuqori qiymati va past p -qiymati ($2,81e-07$) modelning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. K_{ST} –sof tushum o'zgaruvchisi va K_{JX} -jami xarajatlar o'zgaruvchisi ham statistik jihatdan ahamiyatli (p -qiymati $< 0,05$) va bog'liq o'zgaruvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'p omilli modeldan ko'rinib turibdiki, sof tushumning 1000 so'mga o'sishi tannarxni 416,783 ming so'mga jami xarajatlarning ming so'mga o'sishi tannarxni 492,452 ming so'mga oshirishi aniqlandi. Meva-sabzavot klasterlari faoliyatida sof tushum va jami xarajatlar tannarxga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish hajmi oshishi bilan xarajatlar ham o'sib borishini anglatadi. Jami xarajatlarning tannarxga ta'siri sof tushumga qaraganda biroz yuqoriroq, bu esa tannarxning faqat daromad bilan emas, balki umumiy xarajatlar bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu model va uning natijalari meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan korxonalarining biznes xarajatlarini rejalashtirishda muhim rol o'ynaydi, chunki sof tushum ortishi bilan xarajatlarni samarali boshqarish tannarxning haddan tashqari oshib ketishining oldini olishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot yetishtirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash”** deb nomlangan uchinchi bobida mintaqalarda meva va sabzavot mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlarini polinom modellari bo'yicha adaptiv baholangan hamda meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlili yoritilgan. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida meva va sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini ekonometrik modellar yordamida prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Ishda Surxondaryo viloyatida meva va sabzavot mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlarini polinom modellari bo'yicha adaptiv bahosh va prognozlash amalga oshirildi. Odatda, prognozdagi eksponensial o'rtacha qiymatlarni moslashuvchan polinom koeffitsiyentlarining agar o'rganilayotgan jarayonning tendensiyasi chiziqli tendensiyaga yaqin bo'lsa, bunday jarayonni tahlil qilish va prognozlash uchun chiziqli o'sish modellari qo'llaniladi. Bunday modellar bo'yicha oldinga τ qadamlar uchun prognoz natijalari quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$\bar{y}_\tau(t) = a_t + b_t \tau$$

bunda a_t va b_t - aniqlanishi lozim bo'lgan birinchi tartibli adaptiv polinom koeffitsiyentlarining joriy baholari.

Ikki parametrlil Xolt modelida koeffitsiyentlarni baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$a_t = \alpha_1 y_t + (1 - \alpha_1)(a_{t-1} + b_{t-1})$$

$$b_t = \alpha_2(a_t - a_{t-1}) + (1 - \alpha_2)b_{t-1}$$

bunda α_1, α_2 -eksponensial tekislash parametrlari (moslashtirish parametrlari) va ular uchun $0 < \alpha_1, \alpha_2 < 1$ shart bajarilishi kerak;

$e_t = y_t - \bar{y}_\tau(t-1)$ - prognoz xatosi, ya'ni $(t-1)$ paytda olingan prognoz bahosining qatorning haqiqiy darajasidan bir qadam oldinga ($\tau=1$) og'ishini ifodalaydi. U holda yuqoridagi tenglamalarni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$a_t = a_{t-1}y_t + b_{t-1} + \alpha_1 \cdot e_t,$$

$$b_t = b_{t-1} + \alpha_1 \cdot \alpha_2 \cdot e_t.$$

$\bar{y}_\tau(t-1)$ - orqali $(t-1)$ da bir qadam oldinga qilingan prognoz belgilangan.

Xolt modelining xususiy holi Braun chiziqli qatori modelidir:

$$a_t = \alpha_1 y_t + b_{t-1} + (1 - (1 - \alpha_1)^2) \cdot e_t,$$

$$b_t = \alpha_2 + (1 - (1 - \alpha_1)^2) \cdot e_t.$$

Prognoz xatolarining farqini hisobga oluvchi modelga qo'shimcha hadning kiritilishi uning sezilarli darajada yaxshilanishiga olib kelmadi. Shu sababli u keng tarqalmadi. Eksponensial o'rta qiymat tushunchasini yuqoriroq tartibli eksponensial o'rta qiymatlar uchun umumlashtirish mumkin. Mazkur formula bo'yicha r -tartibli tekislash

$$Q_t^p = \alpha y_t^{(p-1)} + (1 - \alpha) \cdot Q_{t-1}^p \quad p = \overline{1, q}$$

bunda $(p-1)$ -tartibli tekislash natijalariga qo'llanilgan oddiy eksponensial tekislashdir. Umumiy holda, deterministik va tasodifiy komponentlardan tashkil topgan o'rganilayotgan jarayon q -tartibli polinom bilan ifodalanishi mumkin, keyingi qadamlar prognozi esa ushbu formula orqali amalga oshiriladi, degan gipoteza qabul qilinadi

$$\bar{y}_\tau(t) = a + b\tau + \frac{1}{2!}c\tau^2 + \dots + \frac{1}{q!}z\tau^q$$

Yuqoridagilar asosida Surxondaryo viloyatida yetishtirilgan meva mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlarining prognoz modelini hisoblandi. Hisob natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Surxondaryo viloyatida yetishtirilgan meva mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlarining prognoz modelini hisoblash natijalari¹²

Yillar	y	a_t	b_t	y_t	$e_t = y - y_t$	$\frac{ e_t }{y} \cdot 100$
		66,45	4,475			
2010	75,6	74,198	7,093	70,925	4,675	6,184
2011	76,2	77,727	4,242	81,291	-5,091	-6,681
2012	82,6	82,411	4,595	81,969	0,631	0,764
2013	77,8	80,562	-0,560	87,006	-9,206	-11,833
2014	82,0	81,401	0,559	80,002	1,998	2,437
2015	88,7	86,678	4,334	81,959	6,741	7,600
2016	102,5	99,053	10,767	91,011	11,489	11,209
2017	107,3	108,056	9,356	109,821	-2,521	-2,349


¹² Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

2018	98,1	103,894	-1,459	117,412	-19,312	-19,686
2019	104,6	103,950	-0,246	102,435	2,165	2,070
2020	95,2	97,751	-5,009	103,704	-8,504	-8,933
2021	97,8	96,283	-2,176	92,743	5,057	5,171
2022	97,2	96,272	-0,444	94,106	3,094	3,183
2023	100,7	99,238	2,284	95,828	4,872	4,838

Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, Surxondaryo viloyatida yetishtirilayotgan meva mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlarining prognoz qiymatlarini aniqlash uchun Xoltning moslashuvchan modeli ishlab chiqildi.

$$\bar{y}_{18} = \bar{y}_5(13) = 99,238 + 2,284 \cdot 5 = 110,66$$

Modeldan foydalanib, Surxondaryo viloyati meva mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlari va adaptiv polinom model natijalarini taqqoslash va modelning prognozi grafigi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Meva mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlari va adaptiv polinom model natijalarini taqqoslash va modelning prognozi¹³

1-rasmda ko'rsatkichning haqiqiy qiymatini olgan holda, taxmin qilingan qiymat xatosi aniqlangan modelni tuzatish tartib-qoidasi asosida hisobga olinadi. Natija ko'rsatmoqdaki, Surxondaryo viloyatida meva mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlari uchun prognoz davrida o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Shu tartibda sabzavot mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlari uchun adaptiv polinom modellar ishlab chiqilgan.


$$\bar{y}_{18} = \bar{y}_5(13) = 267,642 - 6,731 \cdot 5 = 233,989$$

Surxondaryo viloyati sabzavot mahsulotlari hosildorlik ko'rsatkichlari va adaptiv polinom model natijalarini taqqoslash va modelning prognozi grafigi 2-rasmida keltirilgan.

